

**O'QUVCHILARDA 4-K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV
YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMNING AHAMIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11582310>

Kadirova Nilufar Mirzaakbarovna

pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasini mudiri

Annotatsiya: Bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda o'quvchilarda 4-K ko'nikmalarini (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, muloqot) rivojlantirish ta'lim taraqqiyotining asosiga aylandi. Ta'lim muassasalarida o'qituvchilar o'quvchilarda ushbu muhim ko'nikmalarni rivojlantirish, ularni XXI asrda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu ilmiy maqolada o'quvchilarda 4-K ko'nikmalarini rivojlantirishda kreativ yondashuvga asoslangan ta'limning ahamiyati haqidagi ilmiy farazlar bayon etilgan. Bundan tashqari darslarda interfaol ta'lim metodlari, hamkorlik ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o'qituvchilar tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradigan qiziqarli o'quv tajribalarini yaratish, ijodkorlikni, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish va o'quvchilar o'rtasida muloqot qilish qobiliyatini oshirish muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Raqamli jamiyat, 4-K ko'nikmalari, bilim, kompetentsiya, muloqot, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, jamoaviy hamkorlik, muammoli ta'lim.

**ЗНАЧЕНИЕ КРЕАТИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ 4-К НАВЫКОВ У
УЧАЩИХСЯ**

Кадирова Нилуфар Мирзаакбаровна

док. фил. пед. наук (PhD),

Заведующий кафедры методики дошкольного, начального и специального образования Национальный центра по обучению педагогов новым методикам Наманганской области

Аннотация: В современном быстро развивающемся мире развитие навыков 4-К (критическое мышление, творчество, сотрудничество, общение) у учащихся стало основой образовательного развития. Преподавателям образовательных учреждений важно развивать эти важные навыки у учащихся и готовить их к успеху в 21 веке. В данной научной статье описаны научные гипотезы о важности образования, основанного на креативном подходе в развитии навыков 4-К у учащихся. Кроме того, на уроках обсуждается, как учителя могут создавать интересный учебный опыт, который стимулирует критическое мышление,

развивает креативные способности, командное сотрудничество и улучшает способность общения между учениками посредством использования интерактивных образовательных методов и технологий совместного обучения.

Ключевые слова: *Цифровое общество, навыки 4-K, знания, компетентность, коммуникация, креативность, критическое мышление, командная работа, проблемное обучение.*

IMPORTANCE OF EDUCATION BASED ON CREATIVE APPROACH IN DEVELOPMENT OF 4-K SKILLS IN STUDENTS

Kadirova Nilufar Mirzaakbarovna

*Namangan region national center for Training Pedagogues in New methods, head of the Department of Pre-School, Primary and Special Education Methods
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences kadirovanilufar81@gmail.com*

Abstract: *In today's rapidly developing world, the development of 4-K skills (critical thinking, creativity, cooperation, communication) in students has become the basis of educational development. It is important for teachers in educational institutions to develop these important skills in students and prepare them for success in the 21st century. This scientific article describes scientific hypotheses about the importance of education based on a creative approach in the development of 4-K skills in students. In addition, through the use of interactive educational methods, collaborative learning technologies in classes, teachers create interesting learning experiences that stimulate critical thinking, develop creativity, teamwork and communication between students. Capacity building is discussed.*

Keywords: *Digital society, 4-K skills, knowledge, competence, communication, creativity, critical thinking, teamwork, problem-based learning.*

KIRISH

Bugungi jadal rivojlanayotgan XXI asrda ta'limning roli an'anaviy chegaralardan tashqarida kengayib, o'quvchilarni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyat qozonishida muhim bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim paradigmalariga ko'proq urg'u berilmoqda. Ushbu ko'nikmalar orasida muloqot, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va ijodkorlikni o'z ichiga olgan 4-K modeli o'quvchilarni moslashuvchan va innovatsion shaxslar sifatida rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Yangi innovatsion yondashuvni ta'lim tizimiga joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi

ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti. [6, b. 7]

“Raqamli jamiyat”ga moslasha oladigan, jamoaviy ishlash ko'nikmasiga va o'z fikriga ega, muammolarni hal qilishda noodatiy yondashadigan, fikrini to'liq va aniq yetkazib bera oladigan, qarorlarida qat'iy turadigan, tanqidiy tafakkur sohibi bo'lgan XXI asr o'quvchisini shakllantirish uchun pedagoglarimiz ham yuqori pedagogik kompetentlikka ega bo'lishi, darslarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etishi va darslarda kreativ muhit yarata olishi lozim. Yangi innovatsion yondashuv natijasini pedagogning dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin, XXI asr o'quvchisi timsolida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan ham iborat. Pedagog o'quvchilarda 4K hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda, o'quvchilar o'zlarini erkin seza oladigan o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan kreativ muhit yaratishi lozim.

METODIKA:

Ta'limni kreativ yondashuv asosida tashkil etish orqali o'quvchilarning 4K kommunikativ (muloqot), kreativ (ijodkorlik), kritik (tanqidiy) fikrlash, kolloboratsiya (jamoaviy hamkorlik) ko'nikmalarini rivojlantirish ularni tez o'zgaruvchan, texnologiyaga asoslangan dunyoda rivojlanishga tayyorlash uchun juda muhimdir. Keling, kreativ o'quv muhitida o'quvchilarning 4K ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi usul va yondashuvlarni ko'rib chiqaylik. [10, b. 6]

O'quvchilar real dunyo muammolari va loyihalari ustida ishlaydigan loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvlarini tatbiq etish ularning o'rganish, tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini yaxshilashi mumkin. Kreativ metodlar va topshiriqlar o'quvchilarni yangi loyihalarni ishlab chiqish, tanqidiy yondashish, o'z fikrini to'g'ri va tushunarli asoslash, tadqiqot va natijalarni taqdim etishning innovatsion usullarini izlab topishga undashi mumkin.

Interfaol metodlar va muammoli topshiriqlardan o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy kontekstda qo'llash, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Pedagog o'quvchilardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rtaga tashlash va ularni noodatiy tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab quvvatlaydi. Pedagogning o'quvchilar berayotgan kreativ g'oyalari nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi munosabatining muhim qismi bo'lib, o'quvchi ta'limi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. [3, b. 20]

Kreativ fikrlash faoliyati uchun taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovut belgilarini aniqlashga asoslanadi. Taqqoslash - aqlning tahliliy ishidir. Taqqoslash jarayoni murakkab, o'z ichiga sintez, umumlashtirish va xulosani ham qamrab oladi. Tafakkur jarayonida o'quvchi fikr yuritadi, tahli qiladi, zarur bog'lanishlarni aniqlaydi, unga berilgan aniq vazifaga mos keladigan yechim uslublarini

fikran tanlaydi va qo'llaydi. Pedagog o'quvchilarning har xil tushunchalardan foydalanishida mantiqiy tafakkurning ayrim operatsiyalarini qo'llaydi. Fikrlash jarayonida turli xatolarni osonlik bilan payqaydi. "Nima uchun?", "Nimaga?" savollariga javob izlab, pedagog o'quvchilarni o'z fikrlarini asoslashga, yangi savollar qo'yishga va ularga to'g'ri javob berish uchun harakat qilishga o'rgatadi.

Kreativ yondashuvga asoslangan ta'lim – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llashda ijodiy yondashish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mutaxassis sifatida yangicha pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat ko'nikmalarini hosil qiladi. Hozirgi kunda yoshlar kreativ (ijodiy) bo'lishga intilishadi, inson faoliyatining turli sohalarida yangi g'oyalarni yaratmoqda. Mavjud muammolarni noan'anaviy va sifatli hal qilinishi jamiyatning o'sishi, rivojlanish sur'atini tezlashtirishiga olib keladi.

Kreativlik (ing. "create"- yaratish, ijodkor) - shaxs yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorgarligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Kreativlik hayotimizning istalgan sohasida namoyon bo'ladi. [3, b.13]

Har qanday mutaxassis kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari shart bu uchun an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalar haqida fikr yuritishi, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi. Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy roli o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Kreativ fikrlashni o'rgatish bugungi kun o'quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishlash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

O'quvchilarning bilimlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi va rag'batini oshirish uchun barcha o'quvchilarning ijodkorlikka oid imkoniyatlarini hamda qirralarini ochib bera oladigan yangi uslubdagi o'rganish shakllari rivojlantirilishi lozim. Bunday rivojlanish uslublari maktabda bilim olishga qiziqishlari sust bo'lgan o'quvchilarga yordam berib, ularga o'z fikrlarini ifodalash va oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga imkon beradi. O'qituvchilar kreativ fikrlash qanday aniqlanishini, uni yuzaga keltiradigan vaziyatlarni hamda o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali usullari nimalardan iborat ekanini tushunishlari kerak. Bugungi kunda ta'limda yuqori samaradorlikka erishish va o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yangi darsliklar mazmuni 4K yondashuvi asosida takomillashtirilmoqda. 4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Zamonaviy ta'lim yod olishga yo'naltirilgan kontent o'rniga o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi muhim ko'nikmalarni shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda. Shu bilan birga, fanlarda berilayotgan mavzu va topshiriqlar maktab bitiruvchilarining jamiyatda o'z o'rinlarini topishga ko'maklashuvchi hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. An'anaviy ta'limda nima? qachon? qayerda? degan savollarga javob topilar va bu o'quvchilarning xotirasini rivojlantirar edi. Ko'nikma shakllanmagani hisobiga bolalar hayotda duch keladigan masalalar, muammolarga javob topa olmasligi mumkin. Agar o'quvchida muammoga keng qamrovli yechim topish ko'nikmasi shakllantirilsa, muammoga duch kelganda unga qanday yechim topish ustida bosh qotiradi. Mas'uliyat, ishtiyoq, tanqidiy fikrlash, muammoga o'ziga xos uslubda yechim topish kabi ko'nikmalar asosida shaxs xarakteri shakllanadi.

NATIJARLAR:

Kreativ yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarning o'z fikrlarini to'g'ri va tushunarli ifoda etish, turli mulohazalarni faol tinglash, mazmunli muloqotga kirishish qobiliyatini oshiradi, asoslangan dalillarni baholash va qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Kreativ ta'lim muhitida o'quvchilar mantiqiy jumboqlarni yechish, munozarali bahslarda qatnashish, tanqidiy mulohaza qilish kabi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin.

Hamkorlik - turli jamoaviy muhitlarda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim mahoratdir. Kreativ loyihalar tayyorlashda o'quvchilar hamkorlikda ishlash orqali jamoaviy tajribadan foydalanishni, turli nuqtai nazarlarni hurmat qilishni va jamoa maqsadlariga samarali hissa qo'shishni o'rganadilar. Ta'lim jarayonidagi kreativ muhit uzluksiz hamkorlikni rag'batlantiradi, an'anaviy chegaralarni kesib o'tadi va o'quvchilar o'rtasida bog'liqlik tuyg'usini kuchaytiradi. Ijodkorlik innovatsiyalarni rag'batlantiradi, o'quvchilarni noodatiy fikrlashga, imkoniyatlarni tasavvur qilishga va o'zini namoyon qilishga ilhomlantiradi. Kreativ yondashuvga asoslangan ta'lim orqali o'quvchilar muammoning mazmun-mohiyatini idrok etishni, uning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlashni, muammoning yechimini topishda ijodiy yondashishni, yangi ma'lumotlarni qidirib topishni, ma'lumotlarini solishtirishni, saralashni, berilgan topshiriq yuzasidan tayyorlagan loyihasini taqdimot etish va o'z fikrini asoslash orqali faol muloqotni va loyihasini ishlab chiqishda jamoaviy hamkorlik qilishni o'rganadilar. Kreativ topshiriqlar

orqali o'quvchilar o'z ijodkorliklarini ochib berishlari, yangi g'oyalar bilan tajriba o'tkazishlari va an'anaviy chegaralardan tashqarida texnik va badiiy iste'dodlarini namoyon etishlari mumkin.

MUHOKAMALAR:

Kreativ yondashuvga asoslangan ta'lim muhitida o'quvchilarning 4K (muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik) ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos natijalari mavjud ma'lumotlarda aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, biz kreativ ta'limning o'quvchilarga ta'sirini taxmin qilishimiz mumkin bo'lgan natijalarni keltira olamiz. Ba'zilar kreativ ta'lim muhitida o'quvchilarning 4K ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishning kutilayotgan natijalaridan biri raqamli vositalar va interfaol resurslarni o'quv jarayoniga integratsiyalash orqali o'quvchilarning axborot resurslarga kirishi yaxshilanadi degan farazni ilgari surmoqdalar. Kreativ ta'lim asosida o'quvchilarni muammoni hal qilish, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, tahlil qilish va baholashni talab qiladigan faoliyatga jalb qilish mumkin. Haqiqiy hayot faoliyatlarida o'rganilgan bilimlarini qo'llash va murakkab muammolarni hal qilish uchun kreativ ta'limdan foydalanish analitik fikrlashni rivojlantirishi, bahs-munozaralar va loyihaviy taqdimotlar o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini oshirishi mumkin. Kreativ va tanqidiy fikrlash orqali tengdoshlari bilan samarali muloqot qilish va fikr almashishga yordam beradi. Kreativ yondashuvga asoslangan ta'limda darslarni guruh shaklida tashkil etish orqali guruh loyihalari ustida ishlash, jamoaviy ishlarda ishtirok etish va tengdoshlarining fikr-mulohazalarida qatnashish o'quvchilarning hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Texnologik xaritalar bilan ishlash va yo'riqnoma kabi hamkorlikni osonlashtiradigan ta'lim shakllari o'quvchilarga jismoniy joylashuvidan qat'i nazar samarali hamkorlik qilish imkonini beradi. Amaliy mashg'ulotlarni kreativ yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarni texnologik harakatchanligiga, noodatiy usullarni sinab ko'rishga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga va ish joyidagi texnologik o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Kreativ ta'lim muhitlari ko'pincha o'quvchilarning resurslarni mustaqil ravishda o'rganishi, o'quv maqsadlarini belgilashi va ularning taraqqiyotini boshqarishi kabi o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini, tashabbuskorlikni va o'z faoliyati uchun mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Kreativ yondashuvga asoslangan ta'limning o'quvchilarda 4K ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sirini aniq tushunish, pedagogik tajribalarni amalga oshirish va baholash usullariga qarab farq qilishi mumkin bo'lsa-da, bu kutilgan ta'lim natijalari va o'quvchilar malakasini oshirish uchun darslarda kreativ yondashuv texnologiyalardan foydalanishning potentsial afzalliklarini ta'kidlab o'tdik.

XULOSA:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kreativ ta'lim muhitida o'quvchilarning 4-K ko'nikmalarini rivojlantirish o'quvchilarni tobora o'zgaruvchan dunyoda harakat qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan qurollantiradigan innovatsion yo'ldir. Kreativ yondashuvlar va kreativ ta'lim metodlarini ta'lim amaliyotiga integratsiyalash orqali o'qituvchilar malakali kommunikatorlar, tanqidiy fikrlovchilar, jamoaviy o'yinchilar va ijodiy

innovatorlar avlodini rivojlantirishlari mumkin. Raqamli texnologiyalar va ko'nikmalarni rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlikni o'zlashtirish o'quvchilarga kelajakka yo'l beradi, bu ularga dinamik, aloqador va raqamli boshqariladigan jamiyatda rivojlanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son. T: 28.01.2022-yil
2. D.V. Safina va boshqalar. "Ta'lim berish va o'qitishning interaktiv usullari". T: 2017-yil.
3. Kadirova N. Texnologiya fani servis xizmati yo'nalishi darslarida o'quvchilarning kreativ yondashuvini rivojlantirish. – Monografiya // Farg'ona: "SUNRISE-PRO" nashriyoti, 2023. – B. 152.
4. Разумовский В.Г. О'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. - Toshkent, "O'qituvchi", 2018 yil.
5. Pardayev M., Sangirova Z va b. Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish. Tabiiy fanlar o'qituvchilari uchun uslubiy qo'llanma. Toshkent, Baktriya press, 2021. – B.160.
6. Раббонаева Д.Т. Применение инновационного подхода на основе модели «4К» в школах // Научно-методический журнал интерпретации и исследований. – № 30.
7. Торакулов А.Р., Зарипова Б.А. Формирование жизненных навыков в национальной учебной программе // Журнал универсальных научных исследований. – ISSN (E): 2181-4570.
8. Бекмуродова С. Texnologiya ta'limida yangi yondashuv T.: 2017.
9. Вербицкий А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения. Труды методологического семинара «Россия в Болонском процессе: проблемы, задачи, перспективы». - М., 2004 г.
10. Пинская М.А, Михайлова. А. М. Компетенции «4К»: формирование и оценка на уроке: Практические рекомендации / авт.-сост. - М. : Корпорация «Российский учебник», 2019. – С. 76
11. www.ziyonet.uz.
12. www.pedagog.uz